

"O`zkimyosanoat" AJ faollari tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida manzarali daraxtlar ekildi

// 24.11.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yashil-makon>



"O`zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi hududida manzarali daraxt va ko`chat ekish tadbiri o`tkazildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan bo`lib, loyiha doirasida yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko`chatlarini ekish va shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan.

Manzarali daraxt va ko`chat ekish tadbiri davomida jami 1000 ga yaqin manzarali daraxtlar, jumladan, pavloniya, katalpa, eman, chinor va archalar ekildi. Tadbirda "O`zkimyosanoat" AJ rahbar-xodimlari, Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi talaba-o`qituvchilari, XAEA ekspertlari hamda bir qator investitsiya loyihalar vakillari ishtirok etdi.

Tadbir mexmonlari ham ko`chat ekish jarayonida faol ishtirok etdi. Jumladan, XAEA ekspertlari Djon

Xaddad va Yelena Jivitskayalar, "Ximgrad" AJ Bosh direktori A.Gizzatullin, o`rinbosari F.Gazizov hamda "UK Ideya kapital" OAJ Bosh direktori A.Grishinlar o`z ko`chatlarini ekdilar.

Shuningdek, "O`zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonada va tashkilotlar tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida manzarali ko`chat va daraxtlar ekish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

"O`zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati









